



TURIZMNING ATROF-MUHITGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Teshabayeva Odina Nasridinovna

Iqtisodiyot va servis kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD,

odina_0505@mail.ru,

G'ofurov Shukurjon

Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish yo'nalishi talabasi,

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sanoatining dunyo iqtisodiyotidagi o'rni va uning atrof-muhitga ta'siri tahlil qilinadi. Turizmning tez sur'atlarda rivojlanishi tabiiy resurslarning haddan tashqari iste'moli, ekologik muammolar va biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib kelayotgani muhokama qilinadi. Tadqiqotda turizmning suv, energiya va yer resurslariga ta'siri, shuningdek, chiqindilar muammosi va ekotizimlarga zarar yetkazish holatlari statistik ma'lumotlar asosida bayon etilgan. Shuningdek, maqolada turizmning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish choralari, jumladan, barqaror turizm tamoyillari, chiqindilarni boshqarish tizimlari va ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari turizm sektorini ekologik muhofaza tamoyillariga mos ravishda rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Turizm, tabiiy resurslar, atrof-muhit, salbiy ta'sir, barqaror rivojlanish, ekoturizm.

Kirish

Turizm sanoati dunyo iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi va ko'plab mamlakatlar uchun daromadning asosiy manbai hisoblanadi. Biroq, turizmning tez rivojlanishi tabiiy resurslarning haddan tashqari iste'moli, atrof-muhitning ifloslanishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va turizmni barqaror rivojlantirish zamonaviy dunyoning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Ushbu maqolada turizmning atrof-muhitga ta'siri va uni minimallashtirishning ilg'or usullari tadqiq etiladi.

Asosiy qism. Turizm sohasining tabiiy resurslarga ta'siri katta va xilma-xildir. Sayyohlik faoliyati tabiiy resurslarni ishlatish, ularni yo'qotish va atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Quyida turizmning tabiiy resurslarga ta'sirini qisqacha va statistik ma'lumotlar bilan birgalikda ko'rib chiqamiz.



Misol uchun suv resurslari iste'molini olaylik. Turizmda suv resurslariga talab juda yuqori. Sayyohlar ko'pincha katta miqdorda suvdan foydalanadilar, masalan, mehmonxonalarda, kurortlarda va suzish havuzlarida. 2018-yilda Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda turizm sektori barcha ichimlik suvi iste'molining taxminan 7-8% ni tashkil etadi. Bu, ayniqsa, suvsiz hududlarda muammo yaratadi. Abdullayev I. fikricha: "Turistik faoliyat natijasida suv resurslarining haddan tashqari iste'moli kuzatiladi. Masalan, mehmonxonalarda bir mehmon kuniga o'rtacha 300-500 litr suv sarflaydi, bu esa mahalliy aholining suv iste'molidan 2-3 baravar ko'pdir".

Turizm ham energiya iste'moli bilan bog'liq. Mehmonxonalar, transport vositalari va boshqa turistik infratuzilma ko'p miqdorda energiya sarflaydi. 2020-yilgi statistikaga ko'ra, turizm sektori dunyodagi umumiy energiya iste'molining 10% ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich iqlim o'zgarishiga hissa qo'shadi, chunki energiya ko'pincha fosil yoqilg'ilaridan olinadi. Xolmirzayev S. o'z kitobida aytishicha: "Turistik ob'yektlar, ayniqsa mehmonxonalar va kurortlar, energiya resurslarini juda ko'p miqdorda iste'mol qiladi. Masalan, O'rta yer dengizi mintaqasidagi mehmonxonalar energiya iste'moli bo'yicha mahalliy aholiga nisbatan 4 baravar yuqori ko'rsatkichlarga ega".

Turizm, ayniqsa ekologik jihatdan nozik hududlarda (milliy bog'lar, tabiat qo'riqxonalarida), biologik xilma-xillikni xavf ostiga qo'yishi mumkin. Sayyohlar tomonidan yasalgan zarar, o'simliklar va hayvonlar turlarining yo'qolishiga olib keladi. Masalan, 2019-yilda UNWTO tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, sayyohlikning xavfli turi bo'lgan "over-tourism" (yirik sayyohlar oqimi) natijasida tabiiy resurslarning 30% ga zarar yetishi aniqlangan.

Turizm resurslarni haddan tashqari foydalanish, qishloq joylaridagi landshaftlarni buzish, ko'llar va daryolarning ifloslanishiga olib keladi. Masalan, Bali orolida sayyohlar tomonidan tashlangan chiqindilar tufayli dengiz ekotizimlari jiddiy zarar ko'rmoqda. Shuningdek, sayyohlar tomonidan qoldirilgan chiqindilar yovvoyi tabiatni va o'simliklarni tahdidga soladi. "Turistik hududlarda chiqindilar miqdori sezilarli darajada ko'payadi. Masalan, Bali orolidagi turistik hududlarda kuniga 13 ming tonna chiqindi to'planadi, bu esa mahalliy chiqindilar miqdoridan 4 baravar ko'pdir". Darhaqiqat Qodiriv takidlaganidek turistik zona hisoblangan barcha hududlar chiqindi bilan bog'liq muammolarga so'zsiz uchramoqda va bunga asosiy sabab tashrif buyurayotkan turistlarning ingliz tilida aytilganidek "eco-conscious" emasligi va turistik hududlarning ba'zilar bu masalaga befarqligidir.

Turizm sohasining atrof-muhitga ta'siri yuksalib borayotganligi sababli, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun bir qator choralar ko'rilmogda. Quyida



turizmning ekologik ta'sirini minimallashtirish uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan asosiy choralarga to'xtalib o'tamiz.

Barqaror turizmni rivojlantirish (Sustainable Tourism)

Barqaror turizm tamoyillari tabiiy resurslarni tejash, ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi va atrof-muhitni himoya qilishni nazarda tutadi. UNWTO (BMTning Sayyohlik Tashkiloti) tomonidan ko'rsatilgan barqaror turizm usullarini qo'llash, tabiiy resurslarni minimal darajada ishlatish va ekologik izni kamaytirish maqsadida ko'plab dasturlar joriy etilgan.

"Barqaror turizm tamoyillarini qo'llash orqali tabiiy resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish mumkin. Masalan, Kosta-Rikada ekoturizmni rivojlantirish tufayli 1990-yillardan beri o'rmon maydonlari 25% ga ko'paygan". Misol uchun:

- Mahalliy va ekologik toza mahsulotlarni iste'mol qilishni rag'batlantirish;
- Ekoturizmni rivojlantirish va tabiiy hududlarga zarar etkazmaslik.

Atrof-muhitni himoya qilish va chiqindilarni boshqarish

Turizmning atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun chiqindilarni boshqarish tizimlarini rivojlantirish zarur. Sayyohlar tomonidan keltirilgan chiqindilarni kamaytirish uchun:

- Reja va qayta ishlash tizimlarini joriy etish (masalan, plastikni kamaytirish, qog'oz va organik chiqindilarni ajratish);
- Sayyohlar uchun chiqindilarni tashlash punktlarini tashkil qilish;
- Mehmonxonalar va turistik infratuzilmalarda energiya va suvni tejash choralari ko'rish.

1-jadval.

Barqaror turizmni rivojlantirishda turizmning barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari

Yo'nalish	Tavsif	Misollar
Ekoturizmni rivojlantirish	Ekologik toza turizm turlarini qo'llab-quvvatlash	Kosta-Rikada ekoturizm dasturlari
Tabiiy resurslarni tejash	Suv va energiyani samarali foydalanish choralari	Mehmonxonalarda suvni tejash tizimlari
Chiqindilarni kamaytirish va boshqarish	Turistik hududlarda chiqindilarni qayta ishlash tizimini joriy etish	Maldiv orollarida plastik idishlardan foydalanish taqiqlangan
Mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-	Mahalliy tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilarni	Mahalliy hunarmandchilik

quvvatlash	jalb qilish	mahsulotlarini targ'ib qilish
Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ta'lim va targ'ibot	Sayyohlarni ekologik xabardor qilish	Yevropa davlatlarida "yashil sayohat" kampaniyalari
Over-tourismni boshqarish	Sayyohlar oqimini nazorat qilish, turistik mavsumni kengaytirish	Venetsiyada sayyohlar sonini cheklash bo'yicha qoidalar
Yashil infratuzilmalarni joriy etish	Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan infratuzilmani rivojlantirish	Quyosh energiyasidan foydalanadigan mehmonxonalar

"Turistik faoliyatni ekologik standartlarga muvofiq boshqarish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish mumkin. Masalan, Maldiv orollarida 2020-yildan beri plastik idishlardan foydalanish taqiqlangan, bu esa okean ifloslanishini 30% ga kamaytirgan".

Ta'lim va targ'ibot ishlarini amalga oshirish

Turistlarni ekologik masalalar bo'yicha xabardor qilish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali:

- Sayyohlarga tabiatni hurmat qilish, chiqindilarni yig'ish va tashlashni, energiyani tejashni va suvni saqlashni o'rgatish;
- Mahalliy xalqlarni atrof-muhitni himoya qilish uchun maxsus kurslar va treninglar o'tkazish.

Ko'p sayyohlarni tashrif buyuradigan joylarda boshqaruvni kuchaytirish

Ba'zi sayyohlik joylari haddan tashqari ko'p sayyohni jalb qiladi, bu esa tabiiy resurslarga katta yuk soladi. Over-tourismni oldini olish uchun:

- Sayyohlarni muayyan hududlarga tarqatish va yangi turistik manzillarni ochish;
- O'rnatilgan kvotalar asosida sayyohlar sonini nazorat qilish.

O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish

O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, mamlakatning boy tabiiy va madaniy merosini asrash hamda ekologik jihatdan barqaror sayyohlikni ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan. Barqaror turizm atrof-



muhitni muhofaza qilish, mahalliy jamoalarning manfaatlarini himoya qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

2-jadval

Barqaror turizmni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari

Yo'nalishlari	Choralari
<i>Ekoturizmni rivojlantirish</i>	-Milliy bog'lar va qo'riqxonalar infratuzilmasini yaxshilash. -Mahalliy aholining ekologik turizmga ishtirokini oshirish. -“Yashil” mehmonxonalar va ekologik sayohat yo'nalishlarini tashkil qilish.
<i>Madaniy va tarixiy turizmni rivojlantirish</i>	-Tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlashga e'tibor qaratish. -Mahalliy hunarmandchilik va milliy san'atni rivojlantirish. -Sayyohlarni mahalliy madaniyat bilan tanishtirish orqali turizmni jonlantirish.
<i>Mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish</i>	-Qishloq turizmini rivojlantirish va mehmon uylarini ko'paytirish. -Mahalliy tadbirkorlar va hunarmandlarni rag'batlantirish. -Sayyohlik yo'nalishlarida mahalliy mahsulotlar va xizmatlardan foydalanishni oshirish.
<i>Infratuzilmani rivojlantirish va innovatsiyalarni joriy etish</i>	-Transport va logistika tizimi yaxshilanishi kerak. -Raqamli texnologiyalar va aqlli turizm (smart tourism) tizimlarini joriy qilish lozim. -Mehmonxonalar va sayyohlik maskanlarida ekologik standartlarga rioya qilish talab etiladi.
<i>Xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish</i>	-Xalqaro tashkilotlar va investorlarni jalb qilish. -Barqaror turizm bo'yicha qonunchilikni rivojlantirish. -Ekologik turizm bo'yicha xalqaro sertifikatlariga ega mehmonxonalar va sayyohlik markazlarini yaratish.



Barqaror turizmni rivojlantirish ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ekoturizm, tarixiy merosni asrab-avaylash, mahalliy aholi ishtirokini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish orqali mamlakatni xalqaro miqyosda raqobatbardosh turizm markaziga aylantirish mumkin.

2017 yildan 2019 yilgacha xorijiy sayyohlar soni izchil o'sib, 2,7 milliondan 6,7 milliongacha yetgan. Biroq, 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi sababli bu ko'rsatkich keskin pasayib, 1,5 millionni tashkil etdi. 2021 yilda ham pandemiyaning ta'siri davom etib, sayyohlar soni 1,9 millionga yetdi.

2022 yildan boshlab, turizm sohasi tiklana boshladi va xorijiy sayyohlar soni 5,2 millionga yetdi. 2023 yilda esa bu ko'rsatkich 6,6 millionni tashkil etdi, bu pandemiya oldingi darajaga yaqinlashganini ko'rsatadi.

Ushbu davrda turizm infratuzilmasi ham sezilarli darajada rivojlandi. Masalan, 2017 yilda joylashtirish vositalari soni 767 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 5 526 taga yetdi. Shuningdek, turizm xizmatlari eksporti 2017 yildagi 531 million AQSh dollaridan 2023 yilda 2,143 milliard AQSh dollarigacha oshdi.




Diagramma-1.O'zbekistonda xorijiy sayyohlar soni 2017-2023 yillar.

Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonda turizm sohasining barqaror rivojlanishini va infratuzilma hamda xizmatlar sifatining yaxshilanayotganini ko'rsatadi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, barqaror turizm mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam beradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va mahalliy jamoalarning farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Turizm sanoati iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo'shishi bilan birga, tabiiy resurslar va atrof-muhitga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Turistik faoliyat natijasida



suv, energiya va yer resurslarining haddan tashqari iste'moli, atmosfera va suv manbalarining ifloslanishi, shuningdek, biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi muammolar yuzaga keladi. Biroq, barqaror turizm tamoyillarini qo'llash, ekoturizmni rag'batlantirish, qat'iy qonuniy tartiblarni joriy etish, mahalliy aholini jalb qilish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali bu salbiy ta'sirlarni minimallashtirish mumkin.

Turizmning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishda global tajribalar (masalan, Kosta-Rika, Keniya va Maldiv orollari) ko'rsatadiki, barqaror turizm nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki iqtisodiy foyda olish imkoniyatini ham beradi. O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun ekoturizmni rivojlantirish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va turizmni ekologik jihatdan toza usullar bilan boshqarish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, I. (2020). "Turizm va atrof-muhit: muammolar va yechimlar", 45-b.
2. Xolmirzayev, S. (2019). "Barqaror turizm: nazariya va amaliyot", 78-b.
3. Qodirov, A. (2022). "Atrof-muhitni muhofaza qilishda innovatsion texnologiyalarning roli", 89-b.
4. Abdullayev, I. (2020). "Turizm va atrof-muhit: muammolar va yechimlar", 67-b.
5. Rahimov, T. (2018). "Turizmning ekologik oqibatlari: global va mahalliy miqyosda", 145-b.
6. Yulchiyev, A. (2023). Turizm sohasida xizmatlar sifatini boshqarish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari. Solution of social problems in management and economy, 2(8), 32- 38.
7. Nasriddinova, T. O. (2024). Prospects for the growth of tourism in Uzbekistan and the use of organizational and economic methods in the management of tourist complexes. International journal of artificial intelligence, 4(07), 98-103. 8.
8. Тешабаева, О. Н. (2025). Туризм соҳасида тадбиркорликни ривожлантиришнинг иқтисодий механизми: глобал тенденциялар ва миллий тажриба. Modern educational system and innovative teaching solutions, 1(8), 199-204.
9. Nasridinova, T. O. (2025). Global impact and recovery of the tourism business and increasing the competitiveness of the tourism industry in





Uzbekistan. modern problems in education and their scientific solutions, 1(6), 125-131.

10. Nasridinovna, T. O. (2024). Methods of Assessing the Competitiveness of Entrepreneurial Activity in Tourism Enterprises. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 590-594.

11. Nasridinovna, T., & Mirzabahrom, M. (2024). Innovative Reforms and Economic Strategies in the Development of Domestic Tourism in Uzbekistan. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences*, 3(4), 10-17.

12. Nasriddinovna, T. O. (2024). Prospects for the growth of tourism in Uzbekistan and the use of organizational and economic methods in the management of tourist complexes. *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 98-103.

13. Nasridinovna, T. O. (2023). Factors affecting the management of competitiveness in tourism enterprises. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 159-163.

14. Насридиновна, Т. О. (2024). Пути формирования методов продажи туристических услуг при развитии туризма в Узбекистане. *International journal of scientific researchers (IJSR) indexing*, 4(1), 139-145.

15. Nasridinova, T. O. (2024). Developing employee management strategies in hotel management. *American journal of business management*, 2(5), 1-7.

16. Nasridinovna, T. O. (2025, April). The importance of effective marketing strategies in the development of tourism services. In conference of modern science & pedagogy (Vol. 1, No. 1, pp. 119-124).

17. <https://www.unwto.org/tourism-data/un-tourism-tourism-dashboard>.

18. <https://www.unwto.org/tourism-statistics/tourism-statistics-database>.